

## O‘zbek xalq maqollarida “keksalik” konseptining nomoyon bo‘lishi Invisibility of the concept of «old age» in Uzbek proverbs

*Abduazizova Munisa Muzaffar qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

**Abstrakt** Maqlada “keksalik” konseptining o‘zbek tili lingvomadaniyatida aks etgan aksiologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. “Yoshlik” va “keksalik” konseptlarining maqollarda hosil qilgan semantik guruhlari sanab o‘tilgan va ulardan namunalar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** konsept, konseptosfera, maqlol, aksiologiya, linvokulturoloiya, paremiya, semantika.

**Abstract** The article examines the axiological features of the concept of «old age» reflected in the linguistic culture of the Uzbek language. The semantic groups formed by the concepts of «youth» and «old age» in proverbs are listed and samples from them are analyzed.

**Key words:** concept, conceptosphere, proverb, axiology, linguistic culture, paremia, semantics.

G‘arb tilshunosligida keyingi yillarda “konsept”, “konseptosfera” bilan bog‘liq izlanishlar olib borishga qiziqish sezilarli darajada kuchaydi. Ular orasida rus, ingliz tilshunosligida amalga oshirilgan ishlar talaygina. Askoldov S.A., Stepanov Yu.S., Karasik V.I., Petlyuchenko N.V., Kasimova O.P., Kuznetsova L.E., Malaxova S.A., Nesvetaylova I.V., Prixodko A.N., Scherbina V.Ye., Kusainova A.M., Demyankov V.Z., Medvedeva T.S., Yashenko T.A., Saxno O.P., Dzyuba Ye.V., Grigorev A.A., Proxorov Yu.Ye., Dordjieva D.V., Xaritonova V.Yu., Perfileva N.Y., Bogdanova N.V., Menzairova Ye.A., Slishkin G.G., Brukvina V.A., Bulatnikova Y.N., Axmedova D.X., Mirzoyeva Z.D. kabilar tomonidan chop etilgan monografiyalar, maqlolar; amalga oshirilgan monografik tadqiqotlar bu jihatdan xarakterlidir.

O‘zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar “hayot” va “o‘lim”, “yaxshilik” va “yomonlik”, “oqillik” va “nodonlik” konseptlari aksiologik tadqiq qilindi. Xususan, G.Komilova “hayot” va “o‘lim” konseptlarini aksiolingvistik nuqtayi nazardan o‘rangan. Bundan tashqari, antroposentrik maqollar ham aksiologik tadqiq qilingan (M.R.Urishevna, 2020). I.Bahronova (Bahronova, 2020) hamda N.Qodirovalar (Qodirova, 2022) yosh konseptini monografik jihatdan o‘rgandilar.

T.G.Bochina, Syan Syun rus aksiolinvistikasida “yosh” konsepti masalasini konseptual planda o‘rganishgan bo‘lsa, Yetsanet Dias, Yelena Arsentyeva kabi tilshunoslar ingliz va rus tillaridagi paremiyalar misolida “yosh” konseptini tadqiq etishgan. Y.A.Yarets “yoshlik” konseptining ingliz va rus tili lingvosotsiumida nomoyon bo‘lishini ikki til miqyosidagi maqollar vositasida ilmiy tahlilga tortgan. Shuningdek, rus olimalari Y.S.Kudryashova, K.A.Listratkinlar ingliz va rus tillarida uchrovchi paremiyalarda “keksalik” konseptini tadqiq etishgan. Biroq o‘zbek tilshunosligida “yosh” konsepti lingvistik planda chuqur o‘rganilmagan. Ushbu maqolada tadqiqotchilarining e’tiborini bir necha bor o‘ziga tortgan (O.I. Avdeeva, N.V.Kryuchkova, I.M. Lyubina, F.A.Marzuk, P.A.Shcherbo va boshqalar) «yosh» konsepti bilan bog‘liq maqollarda aks etgan dunyoning lingvistik tasviri muhokama qilinadi.

Maqolning mazmuniy xususiyatlari tarbiyalash, pand-nasihat berish g‘oyasiga yo‘naltirilan bo‘lib, odamlarning tajribasi asosida to‘plangan xulosalarni umumlashtirib, uni maksimal darajada ixcham, eslab qolish oson shaklda jamiyat a’zolariga yetkazib beradi<sup>1</sup>. Maqollar evolyutsiyasi atrofdagi olam hodisalarining mohiyatini umumlashtirgan kuzatishlar, dunyoning aksiologik manzarasi, qadriyatlar tizimi va odamlarning antiqadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyatda va shaxs hayotida sodir bo‘ladigan hodisalar nafaqat individual bilimlarning mantiqiy tizimi orqali, balki uning dunyoga munosabati, shaxsiy gumanistik, axloqiy va estetik me’yorlari orqali drok etiladi. Inson o‘z xattiharakatini idealga, maqsadga muvofiq o‘lchaydi. O‘zbek xalq maqollarida yosh aksiologiyasi ikki jihatga asoslanganligini korishimiz mumkin. Birinchidan, inson yoshi qadriyat darajasiga ko‘tarilan yoki aks qadriyat darajasida; ikkinchidan, har bir yosh bosqichiga xos ijobiy yoki salbiy xususiyatlar baholanadi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki o‘zbek tilida keksalik haqidagi maqollar ustunlik qiladi (124), yoshlik va qarilikni qiyoslovchi maqollar ham bor (118), maqollarning 1/5 qismi esa yoshlarga bag‘ishlangan (60).

O‘zbek xalq maqollarida qarilik va yoshlikni quyidagi xususiyatlarga ko‘ra taqqoslangan:

- Jismoniy holati, salomatligi (7,95%): Yoshni Xudo saqlar, Qarini – ovqat; It qarisa, qopolmas, Ot qarisa, chopolmas; Yigitga og‘ir narsa ham yengil tuyular, Keksaga yengil narsa ham og‘ir tuyular; Yigitlik– mastlik, Qarilik – sustlik;

<sup>1</sup> Листраткина К.А. Репрезентация концепта «старость» в паремиологическом фонде русского и английского языков. Комсомольск-на-амуре, 2012.

- Tajriba, donolik (6,62%): Yosh bilmaydi, Katta qiymaydi; Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, Qarilikda bilgani – muzga yozgani.; Qarilikni donolik bezar, Yoshlikni – kamtarlik; Olti yashardan so‘rama, Oltmis yashardan so‘ra;
- Yetuklik (2,98%): Yoshi yetmay, ishi yetmas; Kichikdan – xato, Kattadan – ato; Kichikdan – qusur, Kattadan – uzr;  
 O‘zbek tilidagi yosh haqidagi maqollar keksalikni ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini akslantiran. Ijobiy bahoni ifodalovchi maqollar orasida uyidagi semantik guruhlar ajralib turadi:
  1. Keksalik donolikka teng, keksa odam beba ho tajribaeasi sifatida tasvirlanadi: Qari bilanni pari bilmas; Har keksadan bir naql; Olti yashardan so‘rama, Oltmis yashardan so‘ra; ari bor uyning zari bor.
  2. Axloqiy me'yorlar, keksalikni insoniy holat sifatida hurmat qilish va e'zozlash bo‘yicha ko‘rsatmalar: Yoshning hurmati – qarz, Qarining hurmati – farz; Qari bor uyning zari bor; Qarisi bor uyning parisi bor, Parisi bor uyning barisi bor; Qari uyning farishtasi, saramjoni, sarishtasi.
  3. Qarilik va zaiflik, kasallik o‘rtasidagi assotsiativ aloqaga qaramasdan, keksa odamlar mehnatkashligi va malakasi bilan ajralib turadi. Qari daraxt g‘ichirilaydi, lekin sinmaydi; Qaridan yoshini emas ishini so‘ra.

O‘zbek tilida keksalik davri bilan bog‘liq salbiy assotsatsiyalar ko‘proq uchraydi. Qarilik davri umrning qishi, jismonan zaiflik davri sifatida baholanadi. Keksalikka salbiy bahoni ifodalovchi o‘zbek maqollari orasida mazmuniy guruhlar ajralib turadi:

1. Keksalik insonning aqliy qobiliyatining zaiflashish davri sifatida baholanadi, shuning uchun tiniqlik va hushyorlik uni tark etishi, keksa odamning bolalikka qaytishi qayd etiladi: Qarilik – bolalik; Yiitlik – mastlik, qarilik – sustlik;
2. Keksalik kasallik va inson jismoniy kuchining pasayishi davri sifatida qabul qilinadi. Hayotning ushbu bosqichida odamlar kasalliklar va sog‘liq muammolariga duch kelishadi. Yillar go‘zallikni yo‘q qilishi ta’kidlanadi: Yo‘tal – keksaning hamrohi; Er qarisa erki ketar, Xotin qarisa ko‘rki ketar; Qarilik – davosiz dard; Qarg‘a qagillab g‘oz bo‘lmas, kampir shingillab qiz bo‘lmas.
3. Afsuslanish va qaytarib bo‘lmaydigan o‘tgan vaqtga intilish, keksalikni yoshlik bilan solishtirish: Qarilik davri – qishday, Yoshlik davri – yozday; Qarili uy – qayg‘uli uy; Yigitlik – bir uliston, Qarilik – bir zimiston.

Ko‘rinib turibdiki, ongdagi barcha qadriyatlar / antiqadriyatlar inson hayotining muayyan bosqichlari bilan bog‘liq emas va tadqiqot natijasida qurilgan qadriyatlar

ierarxiyasi shuni ko‘rsatadiki, “keksalik” konseptining evolyutsiyasi til egalarining intellektual-ijtimoiy hosilasi bilan bog‘liq.

### **Adabiyotlar**

1. Байрамова Л.К. 2008. *Интерпретация фразеологизмов в словарях в свете когнитивистики и аксиологии* // Фразеология и когнитивистика. В 2 т. Т.1: Идиоматика и познание / Под ред. Н.Ф.Алефиренко. Белгород.
2. Листраткина К.А. *Репрезентация концепта «старость» в паремиологическом фонде русского и английского языков*. Комсомольск-на-амуре, 2012
3. Rahmatullayev, Sh. 1978. *O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati*. Toshkent.
4. Rahmatullayev, Sh. 2000. *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati*. 1-jild (turkiy so‘zlar). Toshkent: Universitet.
5. Rahmatullayev, Sh. *O‘zbek tilining etimologik lug‘ati*. 3-jild. Toshkent, 2009.
6. Madvaliyev, A. 2021. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 ortiq so‘z va so‘z birikmasi. tahriri ostida*. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
7. Irisqulov, M.T. 2009. *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent: Yangi asr avlod.